

## ZAMONAVIY DAVRDA TA'LIM TIZIMIDA QO'LLANILAYOTGAN ONLAYN TA'LIMNING YUTUQLARI VA KAMCHILIKLARI

*Ilmiy rahbar : F.F. Yuldasheva*

*O'zDJTU katta o'qituvchisi*

*D.M. Shoqosimova*

*O'zDJTU 2-bosqich talabasi*

**Аннотасија:** Ushbu maqolada hozirgi davrda pandemiya sababli onlayn o'qitishning afzallik tomonlari va kamchiliklari yoritilgan. Maqolada xorijdan kirib kelgan yangi texnologiyalar haqida ham ma'lumot topishimiz mumkin, va ularni o'quv jarayonida qanday qo'llanilishi haqida ma'lumotlar mavjud.

**Аннотация:** В данной статье освещаются преимущества и недостатки онлайн-образования в условиях нынешней пандемии. В статье мы также можем найти информацию о новых технологиях, пришедших из-за рубежа, и о том, как они используются в образовательном процессе.

**Annotation:** This article highlights the advantages and disadvantages of online education during the current pandemic. In the article, we can also find information about new technologies that have come from abroad, and how they are used in the educational process.

**Калит so'zlar:** Power Point dasturi, platforma, internet, internet paketlari, Wi-Fi texnologiyasi.

**Ключевые слова:** программа Power Point, платформа, интернет, интернет-пакеты, технология Wi-Fi.

**Key words:** Power Point program, platform, internet, internet packages, Wi-Fi technology.

Hozirgi globallashuv davrida inson har tomonlama ilg'or bo'lishi asr talabiga aylandi. Bilim olishda qanchalik ijobiy va qulay imkoniyat yaratilsa, uni o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada o'sadi. Va shu yo'l bilan yangi yutuqlarga erishiladi. Barchamizga bilamizki, pandemiya sababli barcha universitetlarda onlayn darslar turli xil platforma, dasturlarda va ilovalarda olib borildi. Bu bilan onlayn ta'limning yutuqlari va kamchiliklari ko'zga tashlanib qoldi. Biz bu davrda bir qancha yutuqlarga ham erishishga ulgurdik.

Bulardan birinchisi, maktab yoki universitetda faoliyat olib boruvchi pedagoglar va o'quvchi hamda talabalarda zamonaviy texnologiyalarini va turli tarmoqlardan foydalana olish malakasini yanada oshishiga olib keldi. Bunda o'quvchilar va pedagog o'rtasida bo'lgan har bir dars uchun alohida ko'rgazma ya'ni slaydlar ko'rinishida jo'natilishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa Power Point dasturini ishlata olishdagi

bilim kerak bo'ladi. Bu esa kadrlarning bilim va ko'nikmasi o'sishida har tomonlama yordam berdi.

Shu ham aytib o'tish lozimki, masofaviy ta'lim olish bo'yicha ham bir qancha qonunlar ishlab chiqildi. Masalan, "Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi." [16-modda]

Yana misol tariqasida, "2022/2023 o'quv yilidan boshlab:davlat oliy ta'lim muassasalarida ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha masofaviy ta'lim shakli joriy etiladi." [PQ-279-son]

Onlayn ta'lim vaqt va joy talab qilmaydi. Onlayn darslarni istalgan hududda va vaqtda olib borish mumkin. An'anaviy darslar uchun esa alohida ma'ruza xonalari kerak bo'ladi va bu yerga o'z vaqtida yetib kelish shartdir. Buning uchun ko'p vaqt talab qilinadi. Ba'zan shaharlarda juda yomon tirbandliklar yuzaga keladi. Va bu talabadan juda katta vaqtini yo'lda sarflashiga sabab bo'ladi. Talaba endi internet tarmoqlaridan foydalangan holda istalgan vaqtda va hududda bir vaqtning o'zida bir nechta ma'ruzalarni tinglashi va o'rganish mumkin. Buning natijasida esa vaqtning tejalishi, uni boshqa foydali ma'lumotlarni o'rganish va o'zi ustida ko'proq ishlash uchun imkoniyat yaratadi.

Yana bir foydali tomoni esa budjetiga ham sezilarli foyda keltiradi. Yo'l haqi uchun ketadigan mablag' ham tejaladi. Ortiqcha chiqimlar ham kamayadi. Mobil telefon yoki noutbuklar orqali biz yangi o'zimiz uchun qiziq bo'lgan bilimlarni o'rganishimiz mumkin. Mana shular onlayn ta'limning yutuqlaridir.

Shuni hisobga olish zarurki, har bir narsaning kamchiliklari ham mavjud. Ba'zida onlayn shaklda bilim olishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelamiz. Onlayn ta'limda talabalar va pedagog o'rtasida onlayn suhbatlar bo'lib o'tadi. Onlayn ta'limda bir-biri bilan muloqot muhiti kamlik qiladi. Chunki onlayn platformalarda va ilovalarda vaqtlar chegaralangan bo'lib, o'sha vaqt tugashi bilan platforma avtomatik ravishda tarmoqdan uziladi.

Katta kamchiliklardan biri esa internet aloqasidir. Ba'zi bir hududlarda internet yaxshi ishlamasligi kuzatiladi. Internet aloqasi keng miqyosda foydalaniladigan mamlakatlarda talabalar ta'lim turlarini o'zlari tanlashadi. Agarda talaba tomonidan tanlangan tur onlayn shaklda bo'lsada, lekin internet aloqasi yaxshi bo'lmasa bu ta'lim jarayoniga va sifatiga yomon ta'sir qiladi. Yana bir kamchiligi esa internet tarmog'iga ulanishning yaxshi emasligi. Hamma tarmoqlarga turli xil tarzda ulanadi va foydalanadi. Shuni inobatga olish kerakki, onlayn darslardagi videolar, o'tiladigan dars uchun maxsus yaratiladigan Power Point dasturi yordamida ishlab chiqariladigan

hujjatlarni ochishni hisobga oladigan bo'lsak, bu juda katta internet paketlarini va mablag' olishi mumkin. Va bu davrda "Wi-Fi" tushunchasi kirib keldi. Bu qurilmada cheklanmagan internet mavjud bo'lib, aloqa sifatini ham yaxshilanishiga olib keldi. Bu qurilmani o'rnatish ham ba'zida juda katta mablag'ni talab qiladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, onlayn ta'lim orqali biz yana bir qancha ijobiy yutuqlarga erishishimiz mumkin. Bu onlayn ta'lim bir vaqtning o'zida bir nechta ishlarni qilishga ulgurishimiz mumkin. Zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash malakasini oshishiga ham sabab bo'ladi. Lekin yuqorida aytilgani kabi kamchiliklar sifatli ta'lim olishda to'sqinlik qiladi. Agar muammolar hal etilsa, onlayn ta'limda o'qishlar yutuqlar yana ham oshishi 101 aniq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI "TA'LIM TO'G'RISIDA" Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 15.06.2022 yildagi PQ-279-son.

#### **Foydalanilgan saytlar:**

1. [https://elearningindustry.com/advantages and disadvantages online learning](https://elearningindustry.com/advantages-and-disadvantages-online-learning)
2. <https://lex.uz/m/search>.